

OLIV TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR BILAN TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich

Qarshi xalqaro universiteti

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i

ORCID: 0009-0004-2519-219X

E-mail: haqqulovf1990@gmail.com

Аннотация

Ushbu maqolada O'zbekiston oliy ta'lim tizimi va mehnat bozori o'rtasidagi integratsiya jarayoni chuqur tahlil qilinadi hamda Qashqadaryo viloyati misolida hududiy farqlar o'rganilgan. Tadqiqotda kadrlar tayyorlash tizimining real sektorga mosligi, amaliy ta'lim ulushi, bandlik natijalari va kompetensiya nomutanosibliigi kabi omillar statistik ko'rsatkichlar asosida baholangan. Xalqaro tajribalar, xususan Germaniya, Koreya va AQSH modellariga tayangan holda O'zbekiston uchun integratsiyani kuchaytirishning samarali yo'nalishlari taklif etilgan. Natijalar kasbiy amaliyot, raqamli ko'nikmalar va dual ta'lim modellarini kengaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, mehnat bozori, integratsiya, kompetensiya, dual ta'lim, bandlik, Qashqadaryo

Аннотация

В статье проводится глубокий анализ интеграции системы высшего образования и рынка труда Узбекистана с учетом территориальных особенностей Кашкадарьинской области. На основе статистических показателей изучаются результаты трудоустройства выпускников, уровень практикоориентированного обучения и разрыв компетенций. Опираясь на зарубежный опыт Германии, Южной Кореи и США, предложены направления повышения эффективности подготовки кадров. Полученные результаты подтверждают необходимость расширения дуального обучения и развития цифровых навыков.

Ключевые слова: высшее образование, рынок труда, интеграция, дуальное обучение, компетенции, занятость, Кашкадарья

Abstract

This article provides an in-depth analysis of the integration between higher education and the labor market in Uzbekistan, with a focus on regional characteristics of the Kashkadarya region. Using statistical indicators, the study examines graduate employability, the level of practical training, and skill mismatches. Drawing on international best practices from Germany, South Korea, and the United States, the paper proposes strategic directions for improving labor market responsiveness of higher education in Uzbekistan. The findings reveal the necessity to expand dual education models and enhance digital and practical skills.

Keywords: higher education, labor market, integration, dual education, skill mismatch, employability, Kashkadarya

KIRISH

XXI asrda iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omili sifatida inson kapitali yetakchi o‘ringa chiqmoqda. Raqamli transformatsiya, avtomatlashtirish va yangi texnologiyalar mehnat bozoridagi talablarni tubdan o‘zgartirmoqda. World Economic Forum (2023) prognoziga ko‘ra, yaqin besh yil ichida mavjud kasblarning 44 foizi qayta shakllantiriladi, bu esa oliy ta‘lim tizimidan yuqori moslashuvchanlikni talab qiladi.

O‘zbekistonda ham bu jarayonlar jadallashgan:

Oliy ta‘lim qamrovi 9% → 44.7% (2016–2025), OTMLar soni 70% dan ortiqqa ko‘paygan, kredit-modul tizimi joriy etilgan, dual ta‘lim shakllari kengaymoqda. Biroq sifat masalasida muammolar mavjud. Jumladan, bitiruvchilar kompetensiyasi bozor talabidan 25–40 p.p. past, karyera xizmatlari samaradorligi yetarli emas, hududlar bo‘yicha keskin tafovutlar mavjud.

Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotida gaz-kimyo sanoati, qurilish industriyasi, transport va energetika, xizmatlar sektori kuchli o‘rin tutadi.

Talab yuqori bo‘lgan sohalar muhandislik va IT, texnologik yo‘nalishlar, iqtisod va boshqaruv bo‘lib qolmoqda.

Lekin mavjud ta‘lim resurslari hamma talablarga javob bermaydi.

Tadqiqotimiz jarayonida ko‘ringan asosiy muammo sifatida OTMLar bitiruvchilarining raqobatbardoshlik darajasi mehnat bozori talabidan past ekanligini qayd qilishimiz mumkin.

Tadqiqot maqsadi: Integratsiya jarayonining milliy va hududiy darajada hozirgi holatini baholash hamda takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish. Tadqiqotimizning vazifalari bandlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish, kompetensiya bo‘shliqlarini aniqlash, OTM–ish beruvchi hamkorlik modeli samaradorligini baholash, xorijiy modellar bilan solishtirib, moslashtirilgan yechim taklif qilishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta‘lim va mehnat bozori integratsiyasi bo‘yicha xalqaro ilmiy qarashlar inson kapitali nazariyasiga asoslanadi (Becker, 1993). Sifatli ta‘lim va malakali kadrlar — iqtisodiy o‘shishning asosiy drayveri ekanligi tasdiqlangan.

OECD (2023) tadqiqotlariga ko‘ra, ta‘lim tizimi mehnat bozoriga qanchalik bog‘langan bo‘lsa, iqtisodiy samaradorlik shunchalik yuqori bo‘ladi. ILO (2023) esa XXI asr kadrlarida quyidagi ko‘nikmalar muhimligini ajratadi:

- Raqamli savodxonlik
- Tanqidiy fikrlash
- Moslashuvchanlik va innovatsion fikrlash
- Jamoada ishlash

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida integratsiyani milliy ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab berildi, jumladan: dual ta‘limni kengaytirish, innovatsion korxonalar bilan hamkorlik, raqamli ta‘lim infratuzilmalarini joriy etish va boshqalar.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimi va mehnat bozori o‘rtasidagi integratsiya darajasini baholash hamda Qashqadaryo viloyati misolida hududiy xususiyatlarni aniqlashga qaratilgan bo‘lib, miqdoriy va sifat metodlar sintezida olib borildi. Tadqiqot yondashuvi uch bosqichdan iborat: (i) ma‘lumotlar to‘plash va verifikatsiya; (ii) indikatorlar tizimini shakllantirish hamda normalizatsiya; (iii) tahlil, indekslash va interpretatsiya.

Tadqiqot obyekti — oliy ta‘lim muassasalari (OTM) va mehnat bozori o‘rtasidagi hamkorlik tizimi. Predmet — bitiruvchilarning bandlik natijalari, amaliy ko‘nikmalar darajasi, dual ta‘limdagi ishtirok, ish beruvchilar bilan hamkorlik ko‘lami va kompetensiya mosligi.

Ma‘lumotlar bazasi va verifikatsiya. Birlamchi va ikkilamchi manbalar uyg‘un ishlatildi. Birlamchi manbalar — OTM va ish beruvchilar bilan o‘tkazilgan ekspert suhbatlari, kichik formatli so‘rovnomalar (kompetensiya talablari, amaliyot samaradorligi). Ikkilamchi manbalar — rasmiy statistika (bandlik, ishsizlik, ta‘lim qamrovi), vazirlik va agentlik hisobotlari, xalqaro tashkilotlar (OECD, ILO, Jahon banki va b.) ochiq ma‘lumotlari. Ma‘lumotlar ikki bosqichda tekshirildi: (a) manbaviy moslik — sana, ta‘rif va o‘lchov birliklari bo‘yicha; (b) mantiqiy moslik — vaqt bo‘yicha trendlar va hududlar kesimida o‘ta og‘ishlarni aniqlash.

Indikatorlar tizimi. Integratsiya darajasini baholash uchun yetti asosiy ko‘rsatkich tanlandi: (1) bitiruvchilar bandligi (B); (2) dual ta‘lim ulushi (D); (3) amaliy ta‘lim ulushi — o‘quv rejadagi amaliyot va loyiha ishlarining foizi (A); (4) kompetensiya mosligi — ish beruvchi talabi va bitiruvchi ko‘nikmasi farqining kamayishi (K); (5) karyera xizmatlari samaradorligi — ishga joylashishda markazlar ko‘magining ulushi (S); (6) raqamli ko‘nikmalar darajasi (R); (7) OTM–ish beruvchi hamkorlik loyihalari soni va hajmi (H). Indikatorlar tanlashda uch mezon qo‘llandi: dolzarblik (mehnat bozoriga bevosita ta‘sir), o‘lchanish imkoniyati (ochiq yoki tekshiriladigan ma‘lumot), vaqt bo‘yicha taqqoslanuvchanlik (2020–2024). Zarur hollarda yordamchi ko‘rsatkichlar (yoshlar ishsizligi, bo‘sh ish o‘rinlari tuzilmasi, ta‘lim qamrovi) izohiy tahlil uchun ishlatildi.

Normalizatsiya va og‘irliklar. Turli birlikdagi indikatorlarni solishtirish uchun min–max normalizatsiya qo‘llandi: har bir indikator 0–1 oralig‘iga keltirildi (eng past — 0, eng yuqori — 1). Yo‘nalishlar bo‘yicha ijobiy/negativ yo‘naltirish inobatga olindi (masalan, kompetensiya “bo‘shlig‘i” kamayishi ijobiy natija hisoblanadi va mos ravishda teskari ko‘rsatkichga aylantirildi). Og‘irliklar ekspert baholash va mantiqiy muhimlikka tayangan holda belgilandi: B=0,25; D=0,20; A=0,20; K=0,15; S=0,10; R=0,10. Hamkorlik ko‘rsatkichi (H) sifat tahlilga ko‘proq xizmat qilgani uchun indeksning izohiy komponentida alohida ko‘rsatildi; zarurat bo‘lsa H indikatorini S yoki A tarkibiy qismi sifatida qo‘shib hisoblash mumkin.

Integratsiya indeksi (II). Yakuniy kompleks baholash quyidagicha hisoblandi:

$$II = 0,25 \cdot B + 0,20 \cdot D + 0,20 \cdot A + 0,15 \cdot K + 0,10 \cdot S + 0,10 \cdot R.$$

Bu formulada B, D, A, K, S, R — 0–1 oraliq'idagi normalizatsiyalangan qiymatlar. Indeks 0 ga yaqin bo'lsa integratsiya zaif, 1 ga yaqin bo'lsa kuchli darajada deb talqin qilinadi. Indeks ko'rsatkichlari yillar kesimida va milliy–hududiy darajada taqqoslandi; natija sifatida Qashqadaryoning milliy o'rtachadan og'ishi foizlarda ko'rsatildi.

Tahlil metodlari. Vaqt qatorlari asosida trend tahlili mehnat bozori ko'rsatkichlarining (yoshlar ishsizligi, bandlik ulushi) yo'nalishini ochib berdi; GAP tahlil ish beruvchi talabi va bitiruvchi ko'nikmalari o'rtasidagi farqlarni (foiz punktlarida) aniqladi. Benchmarking orqali Germaniya (dual ta'lim), Janubiy Koreya (innovatsion hamkorlik), AQSH (karyera xizmatlari) modellaridan moslashtiriladigan elementlar belgilandi. SWOT tahlil O'zbekiston va Qashqadaryoning kuchli/zaif jihatlari, imkoniyat va xatarlarini tizimlashtirdi. Korrelyatsion kuzatuv (indikativ darajada) kompetensiya ko'rsatkichlari bilan bandlik natijalari orasidagi bog'liqlikni baholashda qo'llandi; deterministik sabab-natija emas, balki yo'nalish va intensivlikni ko'rsatuvchi dalillar sifatida talqin qilindi.

Namuna va sifat nazorati. Ekspert baholash uchun tanlovli (purposive) yondashuv qo'llanib, yirik ish beruvchilar, sektor vakillari va OTM karyera markazlari xodimlari suhbatga jalb etildi. Savolnomalar qisqa, indikatorga yo'naltirilgan bo'lib, natijalar ekstremal qiymatlar aniqlansa, takroriy tekshiruv bilan tozalandi (outlier check). Ikkilamchi ma'lumotlarda mos kelmaydigan nuqtalar aniqlansa, birlamchi manbaga qayta murojaat qilindi yoki ko'rsatkich izohiy tavsifga ko'chirildi.

Ma'lumot yetishmovchiligi va xatoliklarni boshqarish. Ayrim yillarda yoki hududiy kesimlarda ma'lumot yo'qligi kuzatilganda (i) mantiqiy interpolatsiya yoki (ii) o'sha indikatorni indeks hisobidan chiqarib, qolgan indikatorlar qayta masshtablendi (og'irliklar nisbati saqlangan holda). Bu yondashuv indeksning barqarorligini ta'minlaydi va noto'liq ma'lumot tufayli umumiy xulosa buzilishini minimallashtiradi.

Talqin va validatsiya. Integratsiya indeksi yillik dinamikada ham, hududiy taqqoslashda ham tekshirildi; sezgirlik tahlili (weight-sensitivity) og'irliklar biroz o'zgartirilganda indeks darajalari keskin siljimasligini ko'rsatdi. Natijalar adabiyotlar sharhidan kelib chiqqan kutilmalar (dual ta'lim, amaliy ko'nikmalar, karyera xizmatlari) bilan mos ravishda talqin qilindi va siyosiy-amaliy takliflar bilan yakunlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Biz tomonimizdan taklif etilgan mamlakat va mintaqalar bo'yicha tarmoq va sohalarga oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasini ta'minlash mexanizmi oliy ta'limga xorijiy universitet va institutlar tajribasini jalb qilish, ta'lim olayotgan talaba yoshlar uchun kompleks chora-tadbirlarni shakllantirish, ilmiy-tadqiqot institutlari va ishlab chiqarish korxonalarining o'zaro hamkorligini mustahkamlash imkoniyatini yaratishga turtki bo'ladi, degan fikrdamiz. Iqtisodiyot tarmoqlarida oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasini ta'minlash mexanizmidan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflarni ishlab chiqdik:

*Birinchi*dan, oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi tizimi oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlashning asosiy dastagi hisoblanadi.

*Ikkinchi*dan, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda grantlar, subsidiyalar va investitsiyalardan foydalanib, moliyaviy yordam ko'rsatish vositalarini qo'shimcha harakatga keltiradi.

*Uchinchi*dan, oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining takomillashuviga imkon beradi.

Bizningcha, oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasining muhim yo'nalishi sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash lozim. Keng ma'noda ushbu sheriklikni davlat va xususiy sektorning manfaatlarini muvofiqlashtirishning va o'zaro bog'liq holda harakat qilishini ta'minlashning huquqiy mexanizmi sifatida talqin qilish mumkin¹. Davlat organlarini hamda biznes o'rtasidagi o'zaro hamkorlik o'rnatish ijtimoiy taraqqiyot nuqtayi nazaridan muhim bo'lgan vazifalarni bajarishda ularning imkoniyatlarini birlashtirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Bizningcha, xorijda ancha ilgari boshlangan va amaliyotda o'zining yaxshi natijalarini bergan oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi asosida yuqori malakali kadrlarni tayyorlashdagi davlat-xususiy sherikligining ilg'or tajribasidan biz ham unumli foydalanishimiz, oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi asosida yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning muhim omiliga aylantirishda xususiy sektorning ishtirokini faollashtirish imkoniyatlaridan, mamlakatimizning boy salohiyatidan unumli foydalanmog'imiz kerak.

davlat sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun o'z resurslarini birlashtirishiga asoslangan hamkorligi;


Oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi asosida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Mamlakatimizda davlat-xususiy sherikligining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 26-aprelda qabul qilingan «Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida»²gi Qonunga muvofiq yaratildi. Ushbu qonunga ko'ra, davlat-xususiy sheriklik – davlat sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun o'z resurslarini birlashtirishiga asoslangan hamkorligi hisoblanadi³. Hozirgi bosqichda oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi asosida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish

¹ Davlat-xususiy sheriklik. // <https://zamin.uz>; O'zbekistonda davlat-xususiy sherikchilik mexanizmini joriy etishning jahon tajribasi. // <https://biznes-deily.uz>; Государственно-частное партнерство и инвестиционная деятельность. // <https://sibac-info/conf>; ; Сущность и исторической генезис государственно-частного партнерства в сфере туризма. // <https://yandex.ru>.

² O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 10-may O'RQ-537-son. "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-4329270>

³ O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 10-may O'RQ-537-son. "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-4329270> .

orqali oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasining asosiy yo'nalishlari ishlab chiqildi (1-rasm).




1-rasm. Oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining oliy ta'lim xizmatlari va bitiruvchilar raqobatbardoshligining o'zaro integratsiyasi.¹

Ayni paytda, oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi asosida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash bozorida OTMlar o'rtasida tobora keskinlashib borayotgan

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

raqobat muhiti sharoitida buyurtmachi talablarini boshqarishni, uning uzluksiz oʻzgarib borayotgan ehtiyojlariga moslasha oladigan usullarni qoʻllashni taqozo etadi. Hozirgi davrda raqobat kurashida katta muvaffaqiyatga erishish uchun sifatni oshirish, xarajatlarni pasaytirish, sifatli yuqori malakali kadrlarni tayyorlashni koʻpaytirishning oʻzi boʻlmaydi. Tezlik bilan oʻzgarib borayotgan bozor talablariga moslasha olish, buyurtmachi talablarini aniqlash va uni bekamu koʻst qondirish tezkor strategik ahamiyatga ega choralarni koʻrish zarur. Tahlil natijalari shundan dalolat beradiki, mintaqada oliy taʼlim va mehnat bozori integratsiyasi asosida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash boʻyicha samarali mexanizmlar yaratilmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan boʻlsak, oliy taʼlim va mehnat bozori integratsiyasi asosida yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda davlat va nodavlat sektoridagi oliy taʼlim tashkilotlarini hamkorlikda ishlash uchun birlashtirish maqsadga muvofiq, degan xulosaga keldik. Bunga davlat va xususiy biznes sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan “Davlat-xususiy sheriklik toʻgʻrisida”¹gi qonun asos boʻldi. Bu masalada ijtimoiy tashkilotlar hamda nodavlat oliy taʼlim muassasalarini hamkorlikda, birga harakat qilishlari maqsadga muvofiq. Tahlil natijalaridan kelib chiqib, oliy taʼlim va mehnat bozori integratsiyasi asosida yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning davlat-xususiy sheriklik modeli taklif etildi (1-rasm).



2-rasm. Oliy taʼlim va mehnat bozori integratsiyasi asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlashning davlat-xususiy sheriklik modelini tarkibiy tuzilmasi.²

¹ Oʻzbekiston Respublikasining «Davlat-xususiy sheriklik toʻgʻrisida»gi OʻRQ-537-son Qonuni, 2019-yil 10-may. <https://lex.uz/ru/docs/-4329270>

² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Bizning fikrimizcha, oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasining taklif etilgan davlat-xususiy sheriklik modelini amaliyotga tatbiq qilish oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi asosida tashkilotlarning rivojlanishi va samaradorligini oshishiga, bir nechta yangi tashkilotlarni vujudga keltirishni rag'batlantirishga, raqobatbardosh yangi mahsulotlarni joriy qilishga, infratuzilmani rivojlantirishga, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston oliy ta'lim tizimi va mehnat bozori integratsiyasi so'nggi yillarda sezilarli darajada jadallashgan bo'lsa-da, sifat parametrlari bo'yicha bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Oliy ta'lim qamrovining 4 barobar o'sishi mehnat bozori talablarining ulanish sur'atidan oldinga o'tgan. Shuning uchun talab-taklif nomutanosibligi kuchayib bormoqda. Kompetensiya bo'shliqlari, amaliy ko'nikmalar yetishmovchiligi va ish beruvchilar ishtirokining pastligi integratsiyaning asosiy to'siqlari bo'lib turibdi.

Qashqadaryo viloyati misolida esa muammo yanada keskinroq: iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarida malakali muhandislik va texnik kadrlarga talab yuqori, ammo ta'lim tizimi ushbu ehtiyojni to'liq qondira olmayapti. Integratsiya indeksi natijalariga ko'ra, Qashqadaryo ko'rsatkichlari milliy o'rtachadan 10–15% past. Bu holat hududda innovatsion iqtisodiy o'sish uchun kadrlar tayyorlash tizimi strategik qayta ko'rib chiqilishi zarurligini ko'rsatadi.

Xalqaro benchmarking natijalari Germaniya, Koreya va AQSH tajribalari asosida gibrid integratsion modelni qo'llash O'zbekiston sharoitida eng maqbul yechim ekanini tasdiqladi. Mazkur model dual ta'lim, sanoat bilan bevosita hamkorlik, startup ekotizimi va kuchli karyera xizmatlari tizimini birlashtiradi.

Tahlillardan quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Dual ta'limni kengaytirish va majburiy amaliyot ulushini oshirish (2025 yilga qadar real sektor yo'nalishlarida 50 foizgacha yetkazish)
2. Ish beruvchilar ishtirokida ta'lim dasturlarini modernizatsiya qilish (o'quv rejalari kompetensiya xaritasi asosida qayta ishlab chiqish)
3. OTM–korxonalar–talaba uch tomonlama hamkorlik shartnomalarini yo'lga qo'yish (amaliyotda maosh, ish beruvchiga soliq imtiyozlari)
4. Raqamli ko'nikmalar va STEM ta'limini ustuvor rivojlantirish (har bir ta'lim yo'nalishida IT asoslari majburiy modulga aylantirish)
5. Karyera markazlari faoliyatini natijadorlikka yo'naltirish (bandlik natijalari bo'yicha OTM reytinglari joriy etish)
6. Oliy ta'lim infratuzilmasini yangilash (laboratoriyalar, pilot ishlab chiqarish markazlari, texnoparklarni ko'paytirish)
7. Ilmiy salohiyatni oshirish (PhD ulushini oshirish, sanoat uchun amaliy ilmiy grantlar soni va ulushini ko'paytirish)
8. Ishga joylashgan bitiruvchilarni uzun muddatli kuzatuv tizimi (1–3–5 yillik monitoring (Tracer Study))
9. Innovatsion ta'lim klasterlari barpo etish (Qashqadaryoda gaz–kimyo, energetika, IT yo'nalishlari bo'yicha)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Becker, G. (1993). Human capital: A theoretical and empirical analysis. University of Chicago Press.
2. International Labour Organization. (2023). Skills for employment global framework. ILO Publications.
3. OECD. (2023). Education at a Glance: OECD Indicators. <https://www.oecd.org>
4. World Bank. (2024). Uzbekistan jobs diagnostic. World Bank Publications.
5. World Economic Forum. (2023). Future of jobs report. WEF.
6. Ministry of Employment and Poverty Reduction of the Republic of Uzbekistan. (2024). Labor market indicators 2019–2024. (O‘zbekiston Respublikasi Bandlik vazirligi hisobotlari)
7. State Statistics Committee of Uzbekistan. (2024). Higher education and labor market datasets 2020–2024. <https://stat.uz/>
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2022). Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent.
9. President of the Republic of Uzbekistan. (2022). 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. PQ–60.
10. Rasulov, A. (2022). Oliy ta’lim bitiruvchilarining bandligi va kompetensiya mosligi. Ta’lim va innovatsiya jurnali, 5(3), 41–52.
11. Hakimov, S. (2021). Mehnat bozori talablari va oliy ta’lim modernizatsiyasi. Iqtisodiyot va ta’lim, 8(2), 75–83.
12. Kim, Y., & Lee, J. (2020). University–industry collaboration in South Korea: A dual learning system approach. Journal of Vocational Education, 12(1), 15–29.
13. Schneider, T. (2020). Dual vocational education in Germany as a driver of employability. European Skills Review, 14(4), 55–69.
14. Brown, R., & Hesketh, A. (2021). The mismanagement of talent: employability and jobs in the knowledge economy. Oxford University Press.
15. Smith, J. (2022). Career services effectiveness in U.S. universities: Best practices guide. Journal of Higher Education Policy, 29(2), 122–137.
16. UNESCO. (2023). Skills transformation for inclusive development in Central Asia. UNESCO Publications.
17. Ahrorov, B. (2023). Talabalarning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha yondashuvlar. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari jurnali, 11(1), 89–98.
18. European Training Foundation. (2022). Uzbekistan labor market skills and qualifications report. ETF.
19. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. (2023). Oliy ta’lim statistik to‘plami 2020–2023. Toshkent.
20. Zokirov, O. (2024). Kasbiy amaliyotning samaradorligini baholash metodlari. Kasbiy ta’lim masalalari, 6(1), 33–44.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, oktabr, 10-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**